

NAIM KARIMOV TANQIDCHILIK FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI VA ADABIYOTSHUNOSLIKKA QO‘SHGAN HISSASI.

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti O‘zbek tili yo‘nalishi

3-bosqich talabasi **Abdumo‘minova Qunduzabonu**

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimovning ilm- fan va adabiyotshunoslik yo‘lidagi tadqiqotlari, ilmiy va estetik qarashlari, 20-asr o‘zbek adabiyotshunosligiga va tanqidchilikka qo‘shgan hissasi, ijodining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Munaqqid, tanqidchilik, ilmiy-estetik, monografiya, shoirqalb, essenavis, cho‘lponshunoslik.

Naim Karimov ilm-fan va adabiyot sohasida chuqur izlanishlar olib borgan olim bo‘lib, u jadid adabiyoti, 20-asr o‘zbek adabiyoti va qatag‘on davri ziyolilarining ijodini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. Karimov o‘z ilmiy va adabiy-falsafiy izlanishlarini faollik bilan olib borgan. Uning ilmiy izlanishlari asosan XX asr o‘zbek adabiyotiga, xususan Cho‘lpon, Fitrat, Hamza kabi jadid adiblariga qaratilgan. U Oybek, G‘ofur G‘ulom, Hamid Olimjon kabi zamondoshlari ijodini shakllantirishda ham faol ishtirok etgan — ularning to‘la asarlar to‘plamlarini tayyorlash va nashrga tayyorlashda kuchli roli bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, adabiyotshunos olim va munaqqid, jamoat arbobi, filologiya fanlari doktori, Hamza mukofoti sovrindori, professor Karimov Naim Fotihovich 1932-yil 12-dekabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. “XX asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyoti-tanqidchilik yoki adabiyotshunoslikkina emas, umuman, adabiyotidagi rivojlanishni Naim Karimovsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi”,-deb yozadi ustoz Ozod Sharofiddinov.

Naim Karimov izlanuvchan va yuksak ilmiy-estetik did hamda qarashlarga ega munaqqid, u o‘zbek adabiyotshunosligiga badiiylashgan tafakkur usulini olib kirdi.

Cho‘lpon, Hamza, Oybek, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda ijodiga oid tadqiqotlarida, maqola va monografiyalarida asarlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmay, har bir ijodkorning uslub va mahorati yo‘nalishlarini tarixiy-ma’rifiy jihatlardan ham chuqur tahlil qiladi.

Naim Karimov shoirqalb tanqidchi, buni munaqqid kitob va maqolalariga qo‘yilgan nomlar orqali bilish mumkin. “Tabiat axtarar o‘ziga rassom”, “Oybek nomli cho‘qqi”, “Davlati qalb she’ri va eski tanbur”, “Na oltin, na javoxir edim”, “Ka’bamsan she’riyat” nomli maqolalari bunga yaqqol misol bo‘ladi. U o‘zbek adabiyotshunosligida zamonaviy asarlar matnshunosligiga asos soldi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjonlarning ko‘p jildlik mukammal asarlar to‘plamlari chop etilishiga boshchilik qildi, ularni chop etish prinsiplarini ishlab chiqdi.

Naim Karimov Oybek “Mukammal asarlar to‘plami” ning 20 jildligi nashriga rahbarlik qilgan va bu mehnati uchun hamkasblari bilan Beruniy nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Adabiyot vositasida davr va uning ehtiyojlari bilan mustahkam aloqadorlik, tanqid vositasida xalq dardiga kamarbastalik Naim Karimov ijodining muhim xususiyatidir. Olimning “O‘zbek adabiyoti jallodlari” turkumidagi “Qodiriyning boshi- yangi yil sovg‘asi”, “Assalomu alaykum, dorning og‘ochi”, “Cho‘lpon uchun kishan”, “Alpomishning qatl etilishi”, “Zulm saltanatining zahmatlari” nomli maqolalari yangi davr o‘zbek tandiqchiligining yo‘nalish beruvchi namunalaridir.

Munaqqid istiqlol davriga kelib o‘rta maktablarning 5,7,9- sinflari uchun yaratilgan o‘zbek adabiyoti hamda oliy maktab uchun yozilgan “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” darsliklarining yetakchi muallifidir. Moskvada jahon instituti tomonidan tayyorlanib chiqqan “Ko‘p millatli sho‘ro adabiyoti tarixi”ning 4- va 5- jildlari muallifi ham hisoblanadi.

Uning “Nashri muallif”, “Chig‘atoy gurungi” haqidagi bir turkum maqola-tadqiqotlari tariximiz va madaniyatimizning XX asr tongidagi og‘ir nuqtalarini yoritish jihatidan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning e’tiborga loyiq jihati shundaki, u faqat

ijodkorga emas, uning shaxsiga – insoniy sifatlariga ham nazar tashlaydi, ba’zi tanqidchilar esa ijodkor shaxsiga to’xtalغانlarida uni ilohiylashtirish darajasigacha yetib boradilar, lekin Naim Karimov me’yorni yaxshi biladi. Naim Karimov ishlarida shoir asarlarining badiiy jihatlarini, estetik qimmatini, san’atkor mahoratini o’rganish asosir o’rinda turadi.

Naim Karimov essenavis hamdir. Uning Usmon Nosirga bag’ishlab yozgan “Istiqlol fidoyilari” turkumidagi “Usmon Nosiy. Hayotiy lavhalar. Hujjatlar. Rivoyatlar”(1994), “Usmon Nosirning so’nggi kunlari”(1994) nomli esse janridagi kitoblar yozdi.

Mustaqillik davriga kelib Cho’lponshunoslikning jadal sur’atlar bilan qadam tashlashida professor Naim Karimovning hissasi katta. Uning “Istiqlolni uyg’otgan shoir”(2000) kitobi Cho’lpon hayoti va ijodining ko’pchilikka ma’lum bo’lmagan qirralarini ochishga qaratildi. Uning “Cho’lpon” ma’rifiy romani 2003-yilda “Sharq” nashriyotida bosilib chiqdi. Bu asar olimga katta obro’ keltiridi. Cho’lponning “Kecha va kunduz” nomli kitobning ikkinchi qismi topilishiga umid bormi degan savolga quyidagicha javob beradi: *“Yo’q, hech qanaqa umid yo’q. "Kecha va kunduz" romanining ikkinchi kitobi yozib tugallangani haqida aniq ma’lumot yo’q. Men Cho’lponning ilgarigi KGB, hozirgi Milliy Xavfsizlik arxivida saqlangan hujjatlari orasida bitta narsaga e’tibor qaratganman. Bu- tintuv paytida olib ketilgan narsalarning ro’yxati. Mana shu yerda roman tugallanmagan qo’lyozma, deyilgan. "Kecha va Kunduz"ning birinchi kitobi tugallangan qo’lyozma sifatida nashriyotga berilgan. 1937 yilda Cho’lpon hibsga olinganda u qo’lyozmalar olib ketilgan. Keyin men buning taqdiri bilan qiziqdim. Afsuski, keyin buni aytib berishdi, urush yillarida KGBning xonalari juda sovuq bo’lgani uchun juda ko’p kitoblarni yoqish evaziga isitishgan. Shunda aytishgandiki, Cho’lponning ikkinchi kitobi qo’lyozmasi ham pechkalarga o’tin sifatida yonib ketgan bo’lsa kerak, deb. Chunki biz arxivlarni o’rganish jarayonida ko’p iltimoslar qilganmiz ular topib berisholmagan. Shuning uchun o’sha "yoqib yuborilgan", degan taxmin haqiqatga ko’proq mos keladi.”*

Xulosa, Naim Karimov nafaqat 20-asr o’zbek adabiyotshunosligi balki tanqidchiligi uchun o’zining asarlari, izlanishlari va yangi yo’nalishlari bilan katta hissa qo’shdi. Uning

asarlari ayniqsa jadidchilik tarixini yanada keng o'rganish uchun ulkan zinapoya vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik.T.: "O'qituvchi", 1999.
2. S.Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. T.: "Yangi asr avlodi", 2005.
3. N. Karimov. XX asradabiyoti manzaralari 1-kitob, Toshkent, "O'zbekiston", 2008.

Internet adabiyotlari

1. Ziyo istagan qalblar uchun! – Naim Karimov (1932)
<https://share.google/VhdexTNZzRg04DY60>
2. Taniqli adabiyotshunos olim, professor Naim Karimov bilan suhbat – BBC Uzbek – Lotinda <https://share.google/oXi8Anv4IV8MXLIW6>